



## ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH METODIKALARIDAN FOYDALANISH

**Samatova Shahnozaxon Oybekovna**

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushunilishi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozimligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fikrlash, ona tili, ifodalash, so'zlash, jarayon, nutq o'sritish, vazifa, o'quvchi, o'qituvchi, shakllantirish.

Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki hamda yozma ravishda berishi, o'z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ona tili darslari maqsadini belgilar ekanmiz, darslarda asosan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini savodli qilib, chiroyli ifodalashga o'rgatishimiz zarur. Bu boradagi usullardan biri ijodiy matn yaratishga o'rgatishdir.

O'z fikrini ijodiy matn tarzida ifodalash ona tili darslariga qo'yilgan talablarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan eng samarador usul bo'lib, unda o'quvchining tafakkuri rivojlanadi, so'z boyligi ortadi va so'zdan o'rinni foydalanish jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq - bu insonning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagи predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nut vositasida idrok etadi. So'z signalizatsiyasi, ya'ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo'lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i kiradi.

gNutqning tashqi va ichki, og'zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog'lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So'zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya'ni o'zi uchun bo'lgan nutq ong? O'zini bilish, tafakkur jarayonlarida g'oyat muhim ro'l o'ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o'qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida inchirlash, tovush chiqarmasdan o'qish) bilan chambarchas bog'liqidir.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u astasekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga



oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. Kichik yoshdagagi məktəb o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish nutq o'stirish ta'lif - tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiatini va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioxalish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko'p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta'minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.

Til qonunlarning ta'limga tatbiqi munosabati bilan bolalarni o'qishga o'rgatishdagi usullarni to'g'ri qo'llashi (ko'rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog'ozlar bilan ishslash yo'llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarining o'ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo'lish zarur.

Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg'ularga boy bo'lib, o'qituvchi ana shu tuyg'ularni ilg'ashi. Bola ruhiyatini ko'rsatishi, ta'lif jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berishi zarur.

O'qituvchining turli fanlarni o'qitishdan maqsadi o'quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko'nikmalrini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi nutqi o'quvchilar uchun namunadir. O'quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo'lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e'tibor berih zarur.

Nutq o'stirish metodikasining asosiy vazifasi tarbiyachilarni maktabgacha ta'linda nutq o'stirishning ilmiy pedagogik asoslangan, eng samarali natija beradigan omillari, vositalari va usullarini ishlab chiqish, tarbiyachi, pedagog, ota-onalarni nutq o'stirish usullari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, eng qulay usullardan foydalanish, nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshirishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir. Nutq o'stirish metodikasining mazmuni maktabgacha ta'linda bolalar og'zaki nutqini o'stirish, bolalarda kattalar, tengdoshlari bilan nutqiy muloqot, muomala qilishni bilishga o'rgatishdir. Maktabgacha ta'lif davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko'rganini gapirib berish, suratlarga qarab mazmun bo'yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish,





mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHTI:**

- 1.R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariog'och, 1998.
- 2.F.R.Qodirova. R.M Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. T., "Sano-standart", 2004.
- 3.F.R.Qodirova. R.M Qodirova. "Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". T., "Istiqlol", 2006.
- 4.Babayeva D.R. "Nutq o'stirish metodikasi" T.: TDPU 2016-yil. O'quv qo'llanm

